



BUYRUQ

2025 yil «02» iyun

№ 116 ce/y

“Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”

O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 13 apreldagi 404-sonli “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 2 noyabrda 833-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan Buxgalteriya hisobining milliy standartlari “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish” to‘g‘risidagi 19-sonli standartiga muvofiq depo hududidagi omborxonalar, tsexlar va moddiy javobgar shaxslarga birlashtirilgan inventarlar, asosiy vositalar va tovar moddiy boyliklari navbatdan tashqari inventarizatsiyadan o‘tkazish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Inventarizatsiya o‘tkazish bo‘yicha quyidagi komissiya tuzilsin:

Komissiya raisi: TCH Dj.S.Ergashev
Komissiya a‘zolari: TCHP M.Y.Zulfiqorov
TCHP J.M.Mirzaraxmedov
TCHT B.B.Xaitov
TCHT A.U.Sadikov
TCHΦ R.Sh.Ergashev
Asosiy vositalar bo‘yicha hisobchi T.B.Sharipova
Moddiy boyliklar hisobchisi D.Sh.Nalibayev
Moddiy boyliklar hisobchisi R.J.Jumayev
Yoqilg‘i bo‘yicha hisobchi M.R.Xamidov

2. Inventarizatsiya o‘tkazish va uning natijalarini hisobotda depo balansining quyidagi moddiy tovarlar bo‘yicha 2025 yil 01 iyun holatida aks ettirilsin:

asosiy vositalar;
nomoddiy aktivlar;
moliyaviy qo‘yilmalar;
tovar-moddiy boyliklar;
pul mablag‘lari;
debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar hamda balansning boshqa moddalari.

3. TCHΦ R.Sh.Ergashevga:

- Inventarizatsiya natijalari tahlil qilinsin;
- moddiy javobgar shaxslarda tovar-moddiy boyliklarining yetishmasligi yoki ortiqcha qismi aniqlanganda, ularni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi qarori bilan tasdiqlangan hamda Adliya vazirligi tomonidan 2004 yil 6 apreldagi 1334-son bilan ro‘yxatga olingan “Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasining buxgalteriya hisobi tartibi to‘g‘risidagi nizom”ga muvofiq buxgalteriya hisobida aks ettirilsin;

4. Inventarizatsiyani to‘g‘ri va o‘z vaqtida o‘tkazish uchun javobgarlik TCH Dj.S.Ergashevga yuklatilsin.

5. Ushbu buyruq ijro nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Depo boshlig‘i

O.M. Maxsumov

Yurist

Ijrochi: D.X.Raxmetova